



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Naqd pul muomalasi bo'yicha sharh

Fevral - 2026

- Umumiy pul tushumlari va ularning o'sish sur'atlari
- Naqd va naqd pulsiz to'lovlar o'rtasidagi nisbat
- Banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi
- Bank kassalari va bankomatlardan berilgan naqd pullar
- Naqd pullarning pul massasidagi ulushi



Ushbu sharhda naqd pul tushumlari va chiqimlari dinamikasi, banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi, naqd va naqd pulsiz to'lovlar o'rtasidagi nisbat, shuningdek muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi va ularni boshqarish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

Rezyume

Mazkur sharh 2025-yilda mamlakatda naqd pul muomalasining holati va asosiy rivojlanish tendensiyalarini yoritadi. Unda iqtisodiy faollik oshgan sharoitda naqd pulga bo'lgan talab, banklar orqali naqd pullarning kirim va chiqimi, shuningdek naqd va naqd pulsiz to'lovlar o'rtasidagi nisbatdagi o'zgarishlar tahlil qilingan.

Sharhda aholining bank kartalaridan foydalanish faolligi, bankomatlar va kassalar orqali amalga oshirilgan naqd pul operatsiyalari, chet el valyutasini sotib olish va omonatlardan naqd pul yechish bilan bog'liq jarayonlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi va naqd pul muomalasini boshqarish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

Umuman olganda, sharh naqd pul muomalasi iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda barqaror boshqarilayotganini, bir vaqtning o'zida esa raqamli va naqd pulsiz to'lovlar ulushi izchil kengayib borayotganini ko'rsatadi.

2025-yil mobaynida naqd pul muomalasini tashkil etishda asosiy e'tibor:


banklarga kelib tushgan naqd pullar va naqd puldagi to'lovlar hajmidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotda talabni yetarli miqdorda naqd pullar bilan ta'minlab borishga; muomaladagi naqd pullarning sifatini yaxshilash, eski namunadagi banknotlarni muomaladan qisqartirishga;

banklar o'rtasida naqd pullarning qayta taqsimlanishida Markaziy bankning ishtirokini kamaytirish va erkinlashtirishga qaratildi.

Naqd pul muomalasiga doir ko'rsatkichlar dinamikasi


Banklarda naqd pul muomalasini erkinlashtirilishi, iqtisodiy o'sish faollashgani fonida iqtisodiyotda naqd pullarning banklar orqali aylanmasi doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2025-yilda umumiy pul tushumlari (naqd pul va terminal tushumlari) **1 075 trln.** so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **28 foizga** oshdi. Jumladan, banklarga umumiy pul tushumlarida terminal (shu jumladan, mobil ilovalar) orqali tushumlar ulushi 2024-yildagi **40 foizdan** 2025-yilda **43 foizga** o'sishi kuzatildi. Savdo va xizmatlar sohasida terminal tushumlari (shu jumladan, mobil ilova orqali to'lovlar) salmog'i o'tgan yildagi **44 foizdan 48 foizga** yetdi.

1-rasm: Umumiy pul tushumlari tarkibi va dinamikasi (trln.so'mda)




2025-yilda banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi **1 250 trln.** so'mni (naqd pul tushumlari – **615 trln.**so'm, berilgan naqd pullar – **635 trln.**so'm) tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **24 foizga** oshdi.

Jumladan, banklarga naqd pul tushumlari o'tgan yilga nisbatan **114 trln.** so'mga yoki **23 foizga** o'sdi. Xususan, bank xizmatlaridan (omonatlar, kredit qaytarilishi, xorijiy valyutalarni sotishdan tushumlar) naqd pul tushumlari **60 trln.**so'mga, savdo tushumlari **25 trln.**so'mga va pullik xizmatlardan tushumlar **16 trln.**so'mga ko'p bo'ldi.

2-rasm: Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi (trln.so'mda)


2025-yilda bank kassalari (shu jumladan, bankomatlar)dan jami berilgan naqd pullar 2024-yilga nisbatan **125 trln. so'mga** yoki **25 foizga** oshdi.

Mazkur holat asosan bank kartalaridan naqd pul yechish hajmining **54 trln. so'mga**, banklar tomonidan aholidan naqd chet el valyutasini sotib olish uchun berilgan naqd pullar hajmining **27 trln. so'mga** hamda aholining omonat hisobvaraqlaridan naqd pul yechishi **18 trln. so'mga** o'sishi hisobiga yuzaga keldi.

3-rasm: Bank kassalari (shu jumladan, bankomatlar)dan berilgan naqd pullar va ularning yo'nalishlari bo'yicha tarkibiy dinamikasi (trln.so'mda)

2025-yilda bank kartalariga kirim qilingan mablag'lar hajmi 2024-yilga nisbatan **1,4 barobarga** oshishi asosan aholi daromadlarini o'sishi bilan izohlanadi. Ushbu davrda bank kartalaridagi **279 trln. so'm** mablag'lar naqdlashtirib olingan.


4-rasm: Bank kartalariga kelib tushgan mablag'lar va ularni naqdlashtirish hajmlari dinamikasi (trln.so'mda)



Banklarga tushgan va chiqim qilingan naqd pullar o'rtasidagi farq Markaziy bank tomonidan muomalaga qo'shimcha naqd pullarni chiqarish orqali ta'minlab borildi.

Xususan, Markaziy bank tomonidan 2025-yilda muomalaga qo'shimcha **16,8 trln.** so'm naqd pullar chiqarildi va 2026-yil 1-yanvar holatiga naqd pullarning umumiy pul massasidagi ulushi **18,1 foizni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,1 foiz** bandga pasaydi.

5-rasm. Muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi dinamikasi




Muomaladagi naqd pullarning nominal qiymati bo'yicha tarkibi

2025-yilda Markaziy bank tomonidan qo'shimcha naqd pullarning muomalaga chiqarilishi natijasida banknotlar umumiy soni **262 mln.** donaga ko'paydi va **2 445,7 mln.** donani tashkil qilmoqda.

O'z navbatida, muomaladagi naqd pullar tarkibida ularning miqdori bo'yicha **200 000 so'mlik** banknotlar ulushi 2025-yilda – **23,4 foiz**dan **28,5 foiz**ga yetgan bo'lsa, **100 000 so'mlik** banknotlar ulushi – **40,9 foiz**dan **36,4 foiz**ga kamaydi (bu asosan eski namunadagi banknotlarni muomaladan chiqarish hisobiga shakllangan).

Aholi va tadbirkorlik sub'yektlariga naqd puldagi hisob-kitoblarda qulayliklar yaratish maqsadida muomaladagi banknotlar bo'yicha belgilangan nisbatlar 2025-yil yakuniga kelib, kichik nominaldagi banknot va tangalarda **1,1 foiz**ni, o'rta nominaldagi banknotlar **15,8 foiz**ni hamda yirik nominaldagi banknotlar **83,1 foiz**ni tashkil etib o'rnatilgan koridor doirasida shakllandi.

6-rasm: Muomalaga chiqarilgan banknotlar va tangalarning nominal qiymatlari bo'yicha ulushi (foizda)




Muomaladagi eski namunadagi banknotlarni bosqichma-bosqich qaytarib olish va ularni yangilari bilan almashtirish choralari natijasida, **5 000 so'mlik** banknotlar tarkibida eski namunadagi banknotlar miqdori 2024-yildagi **25 foiz**dan 2025-yilda **7 foiz**ga, 10 000 so'mlik banknotlarda – **24 foiz**dan **5 foiz**ga, 50 000 so'mlik banknotlarda – **25 foiz**dan **4 foiz**ga va 100 000 so'mlik banknotlarda – **18 foiz**dan **3 foiz**ga qisqardi.

Naqd pullarning banklararo harakatini erkinlashtirish, bunda Markaziy bank ishtirokini kamaytirish maqsadida “Naqd pullarning elektron maydoni” platformasi doimiy tarzda takomillashtirib borildi.

2025-yilda mazkur tizimning foydalanuvchilari **1009 tani** tashkil etib, bir oyda o'rtacha **15 trln.so'mlik** amaliyotlar bajarilgan.

7-rasm: “Naqd pullarning elektron maydoni” axborot tizimi orqali aylanmalar dinamikasi



© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026-yil

Naqd pul muomalasini tashkil etish departamenti tomonidan tayyorlandi. O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

E-mail: Yarkulov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-25